



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI**

---

---

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-228-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida**

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasiga muvofiq aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirib borishning joriy etilgan keng qamrovli tizimini amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida

#### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-228-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Bosh prokuraturasining aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirishga qaratilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasini (keyingi o‘rinlarda - Virtual akademiya) 2025-yil 1-yanvardan joriy etish haqidagi taklifi ma‘qullanganligi;

b) aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimining ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilanganligi:

aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, yosh avlod ongiga halollik qadriyatlarini singdirish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan davlat xizmati lavozimlaridagi xodimlarning bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda oshirib borish;

davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini baholash va sertifikatlash hamda sertifikat olgan davlat xizmatchilarining reyestrini yuritish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi milliy va xorijiy tajriba, ilmiy, uslubiy va amaliy ishlanmalar, erishilgan yutuqlar bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini yuritish;

korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb muammolari yuzasidan ilmiy-tadqiqot dasturlari va loyihalarini, shu jumladan, milliy, xorijiy va xalqaro grantlarni jalb qilgan holda amalga oshirish;

v) Virtual akademiyada o'qitish quyidagi kontingent uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv dasturlari asosida olib borilishi belgilanganligi:

aholi, tadbirkorlik subyektlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari vakillari;

ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o'quvchilari va talabalari;

davlat organlari va tashkilotlarining davlat xizmatchilari;

davlat ishtirokidagi korxonalarining xodimlari;

g) "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasining samarali faoliyatini ta'minlash va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (E. Avezov), Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat qilish shu'basi (F. Xasanov) manfaatdor tashkilot va idoralar hamda tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda hududiy davlat organlari va tashkilotlari xodimlarini muntazam ravishda Virtual akademiyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirib borishlarini ta'minlasin.

Davlat ishtirokidagi korxonalarga xodimlarini Virtual akademiyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirish choralari ko'rib borish tavsiya etilsin.

4. Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (D. Mamarajabov), viloyat teleradiokompaniyasi (G'. Sultonov), "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя дружбы" gazetalarini tahririyati (B. Umarov)ga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorining mazmun-mohiyati hamda maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini tashkil etish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R. Sulaymonov zimmasiga yuklansin.